

**SHAYBONIYLAR DAVLATINING NAQSHBANDIYA VA YASSAVIYA  
TARIQATI VAKILLARI BILAN ALOQALARI SABABLARI  
(Shayboniyxon va Xoja Axror Valiy va uning ergashuvchilari o'rtasidagi  
munosabatlar misolida ).**

*Haitov Akram To'ychiyevich  
Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston milliy universiteti  
2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu mavzuda Shayboniylar davlati davrida islomiy boshqaruv tamoyillarining shakllanishi va unda diniy ulamolar, xususan, Naqshbandiya tariqati vakillarining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Asarda Imom Juvayniy va Imom G'azzoliy qarashlari asosida islomiy siyosiy-huquqiy mezonlar, adolat, maslahat, axloqiy mas'uliyat kabi tamoyillarning davlat boshqaruvidagi ahamiyati yoritiladi. Shayboniy hukmdorlar, ayniqsa Muhammad Shayboniyxon faoliyatida shariat qonunlari bilan bir qatorda Chingizxon yasoqlarining amal qilgani, ularning o'zaro munosabati va ayrim ziddiyatlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, Naqshbandiya tariqatining siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotdagi ta'siri, shayxlar va hukmdorlar o'rtasidagi aloqalar hamda bu munosabatlarning Shayboniylar davlatchiligi rivojiga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi.

**Kalit-so'zlar:** Shayboniylar davlati, Muhammad Shayboniyxon, islomiy boshqaruv, adolat, shariat, Chingizxon yasoqlari, Naqshbandiya tariqati, Xoja Ubaydulloh Ahror, diniy ulamolar, siyosiy hokimiyat, tasavvuf, davlat va din munosabatlari, Movarounnahr.

**Kirish:** Bziga malumki asrlar davomida diniy ulamolar va davlat arboblari o'rtasida yaqin munosabatlar o'rnatish va aholi bilan ishlashda ular bilan ishlash shaklanib kelgan bunga bazi sabablar ham mabjud edi. Bunga boshqaruv masalasidagi islom dinidagi qarashlarga etib qilish zarurati ham muhim o'rin tutgan. Bu borada Abdulqodir Majidning "Shayboniylar davlati"<sup>1</sup> kitobida bu masalada quydagicha to'xtalgan. Imom juvayniy va uning shogirdi G'azolliyning islomdagi boshqaruv masalasi eslab o'tilgan. Bunda asosan qattiyat va zonniyot masalasi asosiy o'rinda qo'yiladi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) aytganidek islomdagi boshqaruv asoslarini quydagicha berish lozim. 1. Adolat. 2. Jamiyat huquqlariga rioya qilish. 3. Saxiylik. 4. Yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytarish. 5. Axloqiy ma'suliyat. 6. Layoqat va shaxsiy qobilyat. 7. Maslaxat. 8. Ijtimoiy qabul va kelishuv. 9. Salafi solihlarga rioyat.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Abdulqodir Majid. Shayboniylar davlati / tarj. Iqboljon Usmon. – Toshkent: "Nasim" nashriyoti, 2024. – 637b.

<sup>2</sup> Abdulqodir Majid. Shayboniylar davlati / tarj. Iqboljon Usmon. – Toshkent: "Nasim" nashriyoti, 2024. - 405 b.

Yuqoridagilar shuni anglatadiki birinchi o'rinda hukumdor adolatli bo'lishi eng muhim jihat hisoblanadi. Shuningdek bizga malumki deyarli barcha shayboniylar vakillari diniy sohada ham yetarlicha bilimga ega bo'lishgan. Buni boshlanishi allbata Muhammad Shayboniyxondan boshlanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bizga malumki islom dini tarqala boshlagandan so'ng asosiy vazifa musulmom hukumdorlar uchun, bu adolatli bo'lish hisoblanadi. Bunga eng katta dastlabgi misol bu Umar ibn Xattob (r.a) hisobllanib butun umat hukumdorelariga namuna bo'lib bergan, shu sababli ham musulmon davlatlarda hukumdorlar adolat masalasiga lohida etibor berib kelgan, bunga esa asosan diniy ulamolar bilan doimiy aloqalari ularga yordam bergan desak mubolag'a bo'lmaydi. Yana biz takidlash lozim deb bilgan hukumdor bu bizni davlatchilik tariximizda eng kata o'rin egalagan Amir Temur hisoblanib u kishining diniy ulamolar bilan aloqalari undan keyin kelgan sulolalar vakilariga eng yaxshi misol bo'lib xizmat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

XVI asrdan boshlab movarounahrda din va tasavvuf vakillari bilan ijtimoiy va siyosiy hayotda yangi bosqichda kirib keldi. Shayboniy hukumdorlar bu davrdan boshlab din vakillari bilan juda yaqil aloqalarni yo'lga qo'ygan. Mazkur munosabatlarda dastlab Axmad Yassaviy, keyinchalik esa naqshbandiya tariqati shayxi Xoja Ubaydulloh Axror va uning izdoshlari orqali amalga oshirildi. Mazkur kuchli aloqalar tufayli naqshbandiylik tariqati XVI asr shayboniylarning butun siyosiy, diniy, ilmiy, huquqiy, xato iqtisodiy hayotiga katta tasir ko'rsati. Xatto tariqat shayxlari davlat boshqaruviga aralasha oladigan darajada kuchli mavqega ega bo'lishgan.<sup>3</sup> Naqshbandiya tariqati azolari o'lkaning faqatgina manaviy hayotida emas, balki siyosiy, ijtimoiy va mamuriy sohalarida ham juda kata mavqega ega edilar. Ushbu munsabatlarga muhim bo'lgan bir nechta sabablarni ham takidlash lozim deb bilamiz. Birinchi navbatda asrlar davomida diniy-ma'naviy xolatni va naqshbandiya tariqatining bu borada o'ziga xos rolini aytib o'tish muhim hisoblanadi. Shayboniylar davlati mamuriy tizimida shariatni shunday darjaga yetkazgan ediki, davlatga oid barcha unsurlar, yasoq va yo'sin ham unga bog'liq edi. Shunday bo'lishiga qaramay, Chingizxon konuni va to'rasi asr boshidan oxirigacha shayboniylar vakillari orasida turli xil ko'rinishda o'z kuchini saqlab qolgan.<sup>4</sup> Abdulqodir Majid o'z kitobida turk yozuvchilarini gapiddan izoh kelirar ekan shuni takidlab o'tgan. Oila va meros masalasida Chingizxon yasoqlar va shomoniylar urf odatlari qo'langanligini aytib o'tadi va buni shunday izoxlaydi. Shayboniyxon va uning amirlari mansub bo'lgan tariqat faqatgina besh vaqt namoz va ro'za tutishga katta ahamiyat bergan. Bundan boshqa ishlarni chingizxon yasoqlari qoidasi asosida amalga oshirgan. Bu esa shayboniylarda islom shiati bilan chingizxon yasoqlari o'rtasida bazi muamolar kelib

<sup>3</sup>. Abdulqodir Majid. Shayboniylar davlati / tarj. Iqboljon Usmon. – Toshkent: "Nasim" nashriyoti, 2024. — 425 b

<sup>4</sup> Abdulqodir Majid. Shayboniylar davlati / tarj. Iqboljon Usmon. – Toshkent: "Nasim" nashriyoti, 2024. – 427 b

chiqgan deb takidlaydi muallif. Shu kabi masalalarda shayboniy xonlar, jumladan, Ubaydulloxon va Abdullaxon to'ralardan ko'ra islomiy qonun qoidalarga murojat qilishni ustunroq ko'rishgan.<sup>5</sup> Bu kabi malumotlar biz o'rganib kelgan malumotlardan biroz farq qiladi yani bizga malum bo'lib kelgan, Shayboniylar vakillari islom diniga juda kata etibor bergan, yoki aksaryati islom qonun qoidalari asosida voyaga yetkazilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek biz takidlabm o'tishimiz kerak bo'gan bazi masalalar ham mavjud, bular, Shayboniy vakillari nafaqat bizning hududimizda asrlar davomida yashab kelayotgan va islom manaviyati bilan ozuqalangan mahaliy tub aholini manfa'atini o'ylash turgan bo'lsa, boshqa tomondan endigina o'troq turmushni boshidan o'tkazayotgan Shayboniixon bilan bizni hududga kirib kelgan, qon qonigacha singishib ketgan yasoq qonunlari asosida yashagan O'zbeklarni ham manfa'ati yotardi. Bu esa yuqorida aytib o'tilganidek bazi muamolarga olib kelganligi bejiz emas.

#### MUHAMMAD SHAYBONIYXON DAVRIDA NAQSHBANDIYA TARIQATI VAKILLARI BILAN MUNOSABATLAR

Shayboniixon sulola asoschisi sifatida din vakllari bilan aloqani boshlab bergan chin manodagi yetakchi hisoblanadi. Shayboniixon yoshlik yillaridayoq Turkiston va Buxoro kabi yirik ilm va din markazi sifatida tanilgan shaharlarda yashab ilm o'rgangan. Bu esa shayboniixoniga kelajakda bu hududlarda faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratadi. Shayboniixon hukumronlik qilgan davrlar shayboniylar sulolasining naqshbandiya tariqati vakillari bilan aloqlarning eng yuqoriga chiqargan davrlardan biridir. Shayboniixon yangi davlat tizimini shakillantirishda din ulamolari, bulardan muxim bir tariqatning yetakchisi sifatida naqshbandiya tariqati shayxlariga aloxida etibor qaratadi. Shayboniixon ulkan davlat qurish yo'lida tariqat shayxlarining vakolatlaridan foydalanishga alohida etibor bergan.<sup>6</sup> Shu bilan bir qatorda ushbu tariqatning Shayboniylar davridagi mavqei ham ko'tarilib borgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek tariqat shayxlarining jamiyat hayotidagi o'rni va tasiri juda yuqori bo'lganini takidlab o'tishimiz lozim. Hato temuriylar davrida ham juda kata o'rin egallagan naqshbandiya vakillaridan Xoja Ubaydulloh Axror bunga yorqin misol bo'lishi mumkin. Misol uchun, Abu Said tomonidan chiqarilgan tamg'a solig'i Xoja Ubaydulloh Axror iltimosiga binoan bekor qilinadi sababi ushbu soliq islom diniga oid emas edi. Tariqat vakillari eas barcha davlat masalalarini iloji boricha islom shariati asosida olib borilishiga harakat qilishgan. Shunday bo'lishiga qaramsdan bazida tariqat vakillari bilan bazi muammolar ham bo'lganini hisobga olishimiz lozim bulardan biri Xoja Axror Valiy va unga ergashganlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bizga malumki Xoja axror valiy temuriylar vakillari orasida juda kata o'rin egalagan din

<sup>5</sup>: Abdulqodir Majid. Shayboniylar davlati / tarj. Iqboljon Usmon. – Toshkent: "Nasim" nashriyoti, 2024. – 428 b

<sup>6</sup> Abdulqodir Majid. Shayboniylar davlati / tarj. Iqboljon Usmon. – Toshkent: "Nasim" nashriyoti. 2024. -430 b



vakili sifatida o'rin egalagan edi. Shunigdek temuriy shaxzodalar va shayboniyxon o'rtasida bo'lgan munosabatlarda temuriy shaxzodalarni qo'lab quvatlagan edi, bu esa natijada hokimyatga kelgan shayboniyxon bilan munosabatlarni yomonlashishiga olib keladi va ular o'rtasida qaramaqarshilikni yuzaga keltiradi. Shunday vaziyatda Shayboniyxon xoja va uning vakilariga nisbatan keskin chora ko'rishdan ham toymas edi. Shayboniyxon samarqandni to'liq olganidan so'ng Xoja Axror Valiynig o'g'li Yaxyo xojaning muzokarasi munosabati bilan ularga haj safariga borishga ruxsat beradi va uni mintaqaning notinch holatidan ogohlantiradi, shunda Xoja Yaxyo Alloh nimani buyirsa shu bo'ladi degan javobni beradi. Ogohlantirishga qaramasdan yo'lga chiqqan shayxlar sayoxat vaqtida xujumga uchrab vafot etadi.<sup>7</sup> Yaxyo xojaning bazi bir manbada siyosiy nizolaar natijasida, yana boshqa bir sabab esa shayboniyxonning roziligi bilan sarkardalari tomonidan o'ldirilishi natijasida Xoja Axror Valiynig avlodlarini bir qanchasi smarqandni tark etkanligi va hindistonga borishganligi aytiladi. Bu voqealar orqasidan naqshbandiya tariqati vakilari va Shayboniyxon va uning vorislari o'rtasida katta kelishmovchilik kelib chiqadi. Shunga qaramasdan bu nizoni bartaraf etishga harakatlar Shayboniyxon davridayoq yumshatishga harakat qilinadi. Bu borada Ubaydulloh Axrorning markaziy osiyodagi xalifalaridan Muxammad Qozi Samarqandiyning Shox Shayboniyxoni ukasi bo'lmish Mamud sultonni muridlikga olishi muxim qadamlardan biri bo'ladi.<sup>8</sup> Shuni aytishimiz mumkinki bazi kelishmovchiliklarga qaramay Shayboniyxon davrida ham naqshbandiya tariqati vakillariga alohida etibor qaratilgan va ular bilan doimiy yaqin munosabatlar qilishga haraka qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Shayboniylar davlati boshqaruv tizimida islomiy siyosiy-huquqiy qarashlar muhim o'rin tutgan bo'lib, bu jarayonda diniy ulamolar va, ayniqsa, Naqshbandiya tariqati vakillarining ta'siri sezilarli darajada bo'lgan. Islomiy boshqaruv tamoyillarida adolat, jamiyat manfaatlarini himoya qilish, axloqiy mas'uliyat va shariatga tayanish ustuvor qadriyat sifatida namoyon bo'lgan. Shayboniy hukmdorlar, xususan, Muhammad Shayboniyxon, davlatni mustahkamlash jarayonida ushbu tamoyillarni amalda qo'llashga intilganlar.

Shu bilan birga, Shayboniylar davlati boshqaruvida shariat qonunlari bilan bir qatorda Chingizxon yasoqlari va ko'chmanchi turmush tarziga xos an'analar ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Bu holat o'troq, islomiy madaniyat asosida yashovchi mahalliy aholi hamda ko'chmanchi o'zbek qabilalarining ijtimoiy-siyosiy manfaatlarini muvofiqlashtirish zarurati bilan bog'liq edi. Natijada shariat va yasoq o'rtasida ayrim masalalarda ziddiyatlar yuzaga kelgan bo'lsa-da, keyingi Shayboniy hukmdorlari bu ziddiyatlarni bartaraf etishda islomiy huquqiy me'yorlarga ustuvorlik

<sup>7</sup> Zahiriddin Muahammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: "O'qqituvchi" nashriyot-matba ijodiy uyi, 2008. – 76b

<sup>8</sup> Abdulqodir Majid. Shayboniylar davlati / tarj. Iqboljon Usmon. – Toshkent: "Nasim" nashriyoti. 2024. -432 b

berishga harakat qilganlar. Umuman olganda, Shayboniylar davrida diniy-ma'naviy institutlar, xususan, Naqshbandiya tariqati nafaqat ma'naviy hayotda, balki siyosiy va ma'muriy boshqaruvda ham muhim o'rin egallab, davlat barqarorligini ta'minlash va jamiyatni birlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulqodir Majid. Shayboniylar davlati / tarj. Iqboljon Usmon. – Toshkent: “Nasim” nashriyoti. 2024. -637 b
2. Zahiriddin Muahammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: “O'qqituvchi” nashriyot-matba ijodiy uyi, 2008. – 286 b
3. Solik, Muhammad. Shayboniynoma: Doston / Tahrir hay'ati A. Qayumov va boshq.; nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi E. Shodiev. — Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. — 336 b.
4. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy / Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar muallifi t.f.n. O. Jalilov. — Toshkent: O'zbekiston, 2011. — 704 b.
5. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (“Sharafnomayi shohiy”). Birinchi kitob / Fors tilidan tarjima qilgan S. Mirzayev; so'zboshi va izohlar muallifi B. Ahmedov. — Toshkent: “Sharq”, 1999. — 416 b.
6. Abulabbos Muhammad Tolib ibn Tojiddin Hasanho'ja al-Husayniy as-Siddiqiy. Matlab ut-tolibin / Tarjimonlar: E. Karimiy, E. Mirkomilov; mas'ul muharrir: X. Latifraev. — Toshkent: ToshDShI huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi, “Movarounnahr”, 2016. — 384 b.